

Ona yurting - oltin beshiging

TONG YULDUZ

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2006-yil 18 - 24 - dekabr N:51 (66592)

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,

«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,

«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'limgan xalqaro xayriya jamg'armasi.

DENOVLIKLAR G'OLIB

Denov tumanidagi 1-iste'dodli bolalar umumiyo o'rta ta'lim maktab-internati o'quvchilarga Davlat ta'lim standartlariga nisbatan kengroq va chuqurroq bilim berishga mo'ljallangan umumiyo o'rta ta'lim muassasidir. Maktab-internatga o'quvchilar qobiliyati va qiziqishiga qarab chuqurlash-tirigan dastur asosida o'qitiladi.

Umid

Surxondaryo viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi qarori bilan Denov shahridagi Lomonosov nomli 1-umumta'lim maktab negizida tajriba tariqasida bog'cha-maktab – gimnaziya tashkil qilindi.

Maktab-internatda ta'lim ikki yo'nalihsda olib borilmoqda. Mateematika, til va adabiyot fanlaridan o'quvchilar chuqur bilim olish bilan birga «Yosh tilshunos», «Yosh adabiyotchi», «O'lakashunos», «Al-Xorazmiy avlodlari», «Yosh tarixchi», «Yosh tarjimonlar», «Huquqshunos», «Temur avlodlari» kabi 19 turdag'i to'garaklarga ham muntazam qatnashadilar.



Maktab-internatining bilimdon va zukko o'quvchilari yaqinda O'zbekiston televidenyesida o'tkazilgan «O'yla, izla, top!», «7x7» musobaqasida ishtirok etib, Surxondaryo viloyatining Muzrobot tumani o'quvchilari bilan bellashdilar va g'olib bo'ldilar. Maktab-internat o'quvchilari bu musobaqa ishtirokchilarini tanlash va tayyorlashda maktab-internat direktori M.Sapiyev hamda Bashorat Muhitdinova, Adolat Astanaqulova va Barno Mo'minovlarning xizmatlari katta bo'ldi.

Musobaqada maktabimizning 9-«A» sinf o'quvchilari Farruh Majidov, Alisher Abdusalim o'g'li, Feruza Murodullayeva, Maftuna Eganova, 9-«B» sinf o'quvchilaridan Nuriddin Namozov, Fazliddin Aliyorov, Alisher Ro'ziyevlar o'z bilim va qobiliyatlarini namoyish etdilar.

O'quvchilar musobaqadan katta taassurotlar bilan qaytdilar va keyingi final musobaqlarida ishtirok etish uchun tayyorgarlikni boshlab yubordilar.

Umid qilamizki, keyingi bo'ladigan bellashuvlarda ham maktab-internatimiz o'quvchilari o'z kuch va g'ayratlarini, bilimdonliklarini ko'rsatib, g'olib bo'ladilar.

Omad sizga, denovlik bilimdonlar!

Nuriddin AKBAROV, o'z muxbirimiz.



HAMROH BO'LGIN BOLALIK!

Tong chog'ida uyg'onib,
Ko'nglimga keldi g'ashlik.
Bolaligim, nega tez,
O'tib ketding bunchalik.

Yoz bo'yil ta'il edi-
Hazilkash, o'yinqaroq.
Ertaklarni sog'inib,
Dilda uyg'onar so'roq.


Cho'ziladi bo'ylarim,
Qo'shilar yoshimga yosh.
Oltinsoch qo'g'irchog'im,
Nahot emassan sirdosh.

Yillar, menga yo'ldosh bo'l,
Dilni tark etsin g'ashlik.
Beg'ubor qalbing bilan,
Hamroh bo'lgin bolalik!

UMR

Umr nima, toshqin soyimkin,
Har giyohga hayot beruvchi?
Yo quyoshmi butun borliqni,
Birday sevib, birday ko'rguvchi?
U gulmi yo nafis va xushbo'y,
Ko'zlaringga quvonch ularshgan.
Jilg'ami yo toshlar oralab,
Bir-biridan yo'lak talashgan.
Ta'riflardan ko'nglim to'lmadi,
Umr ulkan mevali bir bog'.
Bu bog'aro har gul, giyohning,
Qadri baland, o'tar vaqt chog'.
Mehnat, ilm to'ldirib kamin,
Har yurakka bag'ishlar huzur.
Ortimizdan bog' qoldiolsak,
Ana shudir eng uzoq umr.

Charosxon MIRZARAHIMOVA,
Toshkentdagi 387-maktabning
9-sinf o'quvchisi.





ЎЗБЕКИСТОН
РЕСПУБЛИКАСИНИНГ
КОНСТИТУЦИЯСИ

«ЎЗБЕКИСТОН»

Respublikamizning barcha shahar va qishloq maktablarida qonunlar majmuasi bo'lgan Konstitutsiyamizning 14 yilligi va xalqaro «Inson huquqlarini himoya qilish» kuniga bag'ishlangan yig'ilish va tadbirlar hamon davom etmoqda. Jumladan, Toshkent shahar, Shayxontohur tumanida joylashgan 39-tayanch maktabda ham yuqori sinf o'quvchilar uchun maxsus

yig'ilish o'tkazildi. Yig'ilishni kirish so'zi bilan ochgan maktab direktori Mavluda Eshonxo'jayeva o'quvchilar orasida huquqiy savodxonlik oyligi o'tkazilishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati haqida so'zlab, qisqacha ma'ruza qildi. Shundan so'ng, tarix fani o'qituvchisi Soniya Yunusova Konstitutsiyamizning mohiyati va tarixiy tamoyili haqida qiziqarli fikrlarni o'rta ga tashladi.

KONSTITUTSIYA – JAMIYAT POYDEVORI

U Yunon tarixi asosida yaratilgan ilk qonunchilik haqida gapirib, kishilarning davlat va qonunlar yaratish sari bosib o'tgan uzoq tarixiy yo'lini qisqacha tahlil qilib o'tdi.

Shuningdek, sho'rolar davridagi mavjud Konstitutsiyani mustaqil O'zbekistonning yangi Qonunlariga qiyos qilib, totalitar tuzum va xalq ommasining erki, huquqi hamma jabhalarda poymol etilganligini, ular yaratgan iqtisodiy boyliklar qonunlarga g'ilof ravishda tashib ketilganligini bir nechta ishonchli dadillar bilan ko'rsatib o'tdi.

Chindan ham 20-yillardan boshlangan, O'zbekistonda yashovchi ziyorilarni qatag'on qilish jarayoni 1954-yillargacha davom etgan edi. O'sha davrda ta'sis etilgan bu qonunlarda yerli xalqlarning ehtiyojiga mos kelmaydigan bir qancha nosoz moddalar joriy qilindi. Jumladan, yerning turli xilqatlar bilan zaharlanishi, porloslanishi, paxta yakkahokimligini joriy etish natijasidagi ekologik holatlar bunga yorqin dalildir. Ma'ruzachi qonunchiligimiz qomusining birinchi bobiga to'xtalar ekan, davlat suverenitetini saqlash – umumxalq ishi ekanligini, xalq esa davlat hokimiyatining asosiy manbai ekanligini alohida uqdirib o'tdi. Shu boisdan ham qonunimizda xalqning huquq va erkinliklari kafolatlanishi eslatib o'tildi.

Notiq qomusimizning 63-moddasiga ham qisqacha to'xtalib, «Oila jamiatning asosiy bo'g'ini va u davlat qonunlari bilan muhofaza qilinib kelinishi» to'g'risida ham ba'zi mulohazalarni bildirib o'tdi. U Konstitutsiyamizning 50-moddasiga to'xtalar ekan, fuqarolar atrof-muhitga nisbatan hushyorlik bilan munosabatda bo'lismaga majbur ekanligini ham alohida to'xtaldi.

Shundan so'ng, o'quvchilar Qomusimizning 16-moddasiga tegishli «farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir», degan qoidasini muhokama qildilar. Ayniqla, o'quvchilar Qomusimizning 66-moddasida belgilab qo'yilgan voyaga yetgan, mehnatga layoqatlari farzandlar o'z ota-onasi haqida g'amxo'rlik qilishi majburiyatları haqidagi qonunni qiziqish bilan muhokama qildilar. Shundan keyin maktabning ma'naviyat ishlari bo'yicha mudiri Hakima opa so'z olib, qomusimizning boshqa qonunlaridan farqini tushuntirib berdi.

Anjuman ishtirokchilari huquqiy savodxonliklarini oshirish sohasida talaygina bilimlarga ega bo'ldilar. Shu kuni barcha sinflarda tarbiyaviy soatlar ham o'tkazilib, o'quvchilar oniga qonun ustuvorligi, huquqiy demokratik davlat qurishda yoshlarimizning huquqiy ongini yuksaltirish muhim ekanligi singdirib borildi.

Mahmud NAZAROV,
filologiya fanlari nomzodi, Oliy toifali
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

BAXTIMIZ QOMUSI

Mana, o'lkamizga qish ham kirib keldi. Bu faslda bir necha bayramlarni nishonlaymiz. Ilk bayramlardan biri «Konstitutsiya kuni» hisoblanadi. Maktabimizda Konstitutsiya bayrami munosabati bilan katta tadbir bo'lib o'tdi. Biz Konstitutsiyaning o'zimizga tegishli boblarini yod oldik va uni she'riy ifodaga solib aytib

TAJRIBAMNI OSHIRISHIM KERAK

Men Toshkentdag'i 102-maktabning 6-«G» sinfida o'qiyan. Maktabimizda yaxshi o'qishimiz uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Menga, ayniqla, ona tili, adabiyot, botanika, geografiya fanlari juda yoqadi. Ra'no Olimova, Shohista opa singari ustozlarim bergan saboqlarni doimo o'zlashtirib borishga harakat qilaman. Maktabimizda katta kutubxonalar bor. Men kutubxonamizning faol a'zola-ridanman. Maqtanyapti demang-u, juda ko'plab badiiy kitoblar o'qiganman. Alisher Navoyi, Bobur singari buyuk bobolarimizning g'azallaridan yod



ISTIQOLNING AJIB TUFASI

—Yaqinda po'taxtimizning 193-o'tta maktabda bitiruvchi sinflar, ota-onalar hamda litsey va kollejlardan kelgan mehmonlar ishtirokida ajoyib uchrashuv bo'lib o'tdi. Bu ommaviy tadbirni uyuştirishdan maqsadimiz, — deydi tuman Tashxish markazi rahbari Gulnora opa, — ta'lum jarayonini to'liq ta'minlashdan iboratdir.

So'ngra, Respublika Tashxis markazi rahbari Sharif aka To'laganov so'zga chiqib: — Biz farzandlarimizni zo'rma-zo'raki emas, balki o'z qiziqish, xohish va layoqatlariga qarab ongli ravishda kasbga yo'naltirishimiz zarur, — deya ta'kidladi.

Radio-teknika kollejining katta o'qituvchisi Bahrom aka yig'ilganlarni kollejdagi axborot

berdik. Sinfoshim Bahromjon «O'zbekiston» qo'shig'ini, men, Izzatillo, Mirzag'olib, Boburmirzo esa Konstitutsiya haqidagi she'rimizni aytdik. Tadbir so'ngida biz bilan birga sinf rahbarimizga ham maktab jamoasi tomonidan minnatdorchilik bildirildi.

Yusufbek OZODEBEKOV,
*Andijon tumanidagi 42-umumta'lim
maktab o'quvchisi.*

ham organman. Bundan tashqari, O'zbek Milliy akademik drama teatri qoshida faoliyat yuritayotgan Salomat Vafoyevaning rahbarligidagi o'quv kurslariga qatnayapman. U yerda bizga Mukambar opa G'ulomova aktyorlik mahoratini puxta o'rgatadilar. Biz jamoamiz bilan Yoshlar telekanali orqali efirga uzatilayotgan «Davrning bolasi» hamda «Maktab hangomalari» ko'rsatuvlariga lavhalar tayyorlaymiz. Shuningdek, yaqinda «U kim, bu nima?» ko'rsatuvida ishtirok etdim va bu ko'rsatuvlar orqali o'quv markazida olgan bilimlarimni ham sinab ko'rdim. Kelajakda telejurnalist bo'lmochiman. Buning uchun esa faqatgina bilimli bo'lishning o'zi kamlik qiladi. Men yana ham ko'proq o'qishim, shu bilan birga tajribamni oshirib borishim kerak.

Akobir NOSIRXO'JAYEV.

texnologiyalari, kompyuter, televizorlar, xonadagi qitish tizimlari bilan to'liq tanishtirdi. Birgina astronomiya fani xonasidan Moskvadan keltirilgan 34 ming so'mlik jihozlar joy olgan ekan.

«Osiyo taraqqiyot banki» tomonidan taqdim etilgan texnikaga oid kitoblar esa farzandlarimizning to'liq bilim olishlarini kafolatlaydi. Birgina kimyo fani xonasidagi texnikaga oid jihozlarni olsak, shuning o'ziga davlatimizning 54 mln. so'mlik mablag'i sarflangan. Koreyadan keltirilgan kompyuterlar ham o'quvchilar uchun taxt qilib qo'yilibdi.

Bunday shart-sharoitlar va imkoniyatlarga javoban maktab o'quvchilarini ham puxta bilim olishga intilishyapti. Bu jihozlardan avaylab foydalanib, uka va singillariga ham qoldirishni oldilariga maqsad qilib qo'yishgan.

Manzura UBAYDULLAYEVA.

ONA

Onajonim uyquga,
Judayam kech yotadi.
Bilmayman, bu nimasi,
Tonggi ham tez otadi.

Keyin bilsam onamni,
Qilar ishi ko'p ekan.
Tarbiyalab bolamni,
Odam qilay der ekan.

Onajonim mehridan,
Men ham mehr oiganman.
Ona matonatiga,
Juda qoyil qolganman.

Mehribonim, onajon,
Doim bo'ling sog'-omon.
Onalar omon ekan,
Farzandlar bo'lmas yomon.



URUSH BO'LMASIN!

Yurtimiz odamlari,
Urushmasinlar hech vaqt.
Hech bir insonning umri
Xazon bo'lmasin bevaqt.

Bog'-u chamanzorlarda
So'lib qolmasin gullar.
Bu gullarning shoxida
Sayrab tursin bulbullar.

Urushni deb onalar
Dard-u alam chekmasin.
Yurtimiz osmonidan
Tinchlik qushi ketmasin.

Muhayyo OLLOBERGANOVA,
Xorazm viloyati, Shovot tumani,
6-«V» sinf o'quvchisi.

«Haqiqiy do'st kulfatda bilinadi», deydi dono xalqimiz. Haqiqatan ham chin, sодиқ, mehribon do'stga ega bo'lishning o'zi katta baxt. Marhabo buni keyinchalik eng yaqin dugonasi Malikaning «xiyonati»dan so'ng bildi. Malika sinfning oldi qizlaridan. Ham chiroqli, ham a'lochi. Buning ustiga dadasi «kattakon rahbarlar»dan biri bo'lganligi uchun

Bu gaplarni eshitgan Marhabo turgan joyida qotib qoldi. O'zining barcha sirlarini aytib, uning eng yaqin do'sti deb bilgan Malikadan buni eshitishni xayoliga ham keltirmagan, o'tgan kuni uning tug'ilgan kuniga sovg'a qilgan sharfnini esa ikki oy davomida oyisi tushligiga deb bergen pulni tejab yiqqan edi:

Qalbida e'zozlab yurgan do'stligi bir

nimadir bo'lganligini payqashib, sinfda shivir-shivir boshlandi. Faqtgina o'qituvchining jarangdor, keskin ohangida tartibga chaqiruvchi gapi bunga chek qo'ydi.

SAROBGA AYLANGAN DO'STLIK

ham o'qituvchilar-u sinfdoshlari uning atrofida girdikapalak. Nafaqat yigitlar, balki ko'pgina qizlar ham u bilan do'st bo'lishni, unga yaqinroq yurishni orzu qilishardi. Ammo u Marhaboni tanladi. Bundan uning boshi osmonga yetdi. Chunki Malika bilan birga yurgan qiz beixtiyor o'qituvchilar nazariga ham tushar, Malikaning nomi tilga olinganida uning dugonalari ham maqtab o'tildi.

Shu kuni Marhabo maktabga ertaroq keldi. Dars boshlanishiga hali bir soatlar chamasi vaqt bo'lganligi uchun ham kutubxonaga kirib, badiiy kitoblarni ko'zdan kechira boshladi. Shu payt kutubxonaga kirgan Malika bilan Dilrabo kitob javonlari orasidagi Marhaboni ko'rmay, chetdagi stol yoniga borib o'tirishi.

-Malika, shu Marhabo bilan sudralishib nima qilasan, o'zi kambag'al bo'lsa. O'tgan kuni sening tug'ilgan kuningga olib kelgan sovg'asini ko'rdingmi? Shuyam sovg'a bo'ldi-yu.

-E, sharfini aytapsanmi? Uni allaqachon otvorganman. Marhaboning algebradan kallasi zo'r ishlaydi. Nazorat ishlarini o'shandan ko'chiraman. Yordam berib tushuntirvor deyman-u, hammasini ko'chirib olaman. U esa buni bilmaydi. Maktabdan keyin u bilan dugona bo'ladigan ahmoq yo'q, buning ustiga Alisherni ham boshini aylantirib yuribdi. U menga yoqishini bilib turib, atayin shunday qiladi. Vaqt kelsin, hali Marhaboning kunini ko'rsataman...

zumda chilparchin bo'lib, sarobga aylanganligi Marhaboning xo'rligini keltirdi. Bo'g'ziga tiqilgan yig'ini bazo'r yutib, namlangan kipriklariga iligan yoshni kafti bilan artdi.

Birinchi soat algebra darsi bo'lib, o'quvchilar nazorat ishi yozishlari lozim edi. Marhabo Malika bilan sovuqqina salomlashib, unga teskari qarab o'tirdi. Bundan hay-

ron bo'lgan Malika bir necha bor uni

turtib, «senga nima bo'ldi?» deb so'radi. Javob bo'lmagach, «Marhabo, iltimos, manavi masalaga yordam berib yubor, tushunmayapman. Axir sen jonajon dugonamsan-ku», deya erkalanib unga tiqildi.

Marhabo yonida Malika emas, har soatda rangini o'zgartirib, boshqa qiyofaga kiradigan kaltakesakni ko'rgandek bo'lib, birdan seskanib ketdi. So'ng, qo'lini ko'tarib, muallimdan boshqa partaga borib o'tirishga ruxsat berishini so'radi.

Sinfdoshlari Marhabodagi bu o'zgarishdan hayron edilar. Oralaridan qil o'tmas dugonalar o'rtasida

Faqat qizlar o'qisin



Marhabo ilk marotaba Malikaga ko'chirishga bermaganligi sababli, «a'lochi» Malika nazorat ishidan uch baho oldi. Endi u atayin

Marhaboga eshittirib uni yomonlar, barcha qizlarni o'zi tomonga og'dirib, ularning Marhabo bilan gaplashishlariga yo'l qo'ymas edi. Bundan xabar topgan rahbarlari Mukarrama opa darsdan so'ng qizlarni yig'ib, haqiqiy do'st qanday bo'lishi kerakligi haqida so'zlab berdi. Insondagi eng yomon illatlardan biri bo'lgan ikkiyuzlamachilik va munofiqlik unga faqtgina kulfat keltirishini ta'kidladi. Ustozi sinfdoshlardan hech kimning nomini tilga olmagan bo'lsa-da, Malika yig'ilishning oxirigacha qizarib, boshini egib o'tirdi. Hamma tarqalgandan so'ng esa, Marhaboning yoniga keldi.

-Marhabo, meni kechirgin...

Afsuski, bugun tengdoshlarimiz ichida Malika singarilarni ko'plab uchratish mumkin. Faqtgina o'z manfaatini o'ylaydigan, o'ziga ishongan, o'zini do'st deb bilgan o'rtoqlarini bu yo'lda suiste'mol qiladiganlar ko'p.

Siz nima deysiz?

**Lenire ABLYAMITOVA,
Toshkent shahri, S.Rahimov tumanidagi
131-maktabning 8-«V» sinf o'quvchisi.**

SOXTA MUHABBAT

Bir kuni darsdan chiqayotib, sinfdoshlarimni bir yigit bilan turganini ko'rdim. E'tibor bermasdan ketayotsam, u orqamdan kelayapti.

-Yaxshi qiz, tanishaylik.

-Yo'q, men hech kim bilan tanishmayman.

-To'xtang, men siz bilan gaplashib olishim kerak.

-Men sizni tanimayman.

-Men ... Men sizni sevib qoldim (hali tanishib ulgurmasdanoq).

-Rostdanmi?! Qarang-a, rosa ishondim.

-Ishonmayapsizmi?!

Unda hozir ko'chada hammani oldida tiz cho'kishim mumkin (sal o'zimga kelib qoldim, axir bo'lishi mumkin-ku sevib qolishi).

-Yo'q, nima qilasiz,



baribir men siz bilan tanishmayman ham, gaplashmayman ham.

-Nega?! Haliyam ishonmayapsizmi?!

Mayli, aytganimni qilib, tiz cho'kaqolay.

-To'xtang, nima, tiz cho'ksangiz, meni sizga ishonadi deb o'ylayapsizmi? Bo'ldi, keting (bu tiz cho'kishlar hammasi uyimga ketadigan yo'lda bo'layapti). Meni boshqa qizlarga o'xshatmang, mening ota-onam bor, o'z hummatimni o'zim yaxshi bilaman.

-Mayli, meni ota-onangiz o'ldirishsin, men bunga roziman siz uchun (yo'q, men bunga ishonmasligim kerak).

-Bo'ldi, iltimos, meni orqamdan kuzatmang, xayr.

U ortda qoldi. Men esa o'zimcha xayolga toldim. U yigit menga umuman

yoqmagan bo'lsa ham, negadir uning gaplariga ishongim keldi, men uchun tiz cho'karmish, buning nimasi yomon... Ertasi kuni darslar tugab maktabdan chiqayotsam, u turibdi. Ishqilib gapirmas, dedim o'zimcha. Qarangki, u menga bir marta qaradi-yu, yuzini o'girib, boshqa qizo ham boqmadni.

Ana shunda uning haqiqiy yuzini bilib oldim, uning asl maqsadi ham menga ravshan bo'ldi...

Bir kuni istirohat bog'iga dugonam bilan dam olgani borgandik, odam ko'pligidan barcha o'rindiqlar band. Istirohat bog'lariga kichik yoshti bolalar, bayram yoki tadbirlar bo'lsa, ota-onalari bilan dam olishga borishadi. Lekin buni qarangki, bu bog' «juftliklar» makoni bo'lib qolibdi...

Mayli, ochiq-sochiq kiyinaylik, yevropa uslubda yashay qolaylik. Lekin imonimiz, ko'nglimiz musulmonchilikda qolsin.

**Aziza HAKIMOVA,
Toshkent shahri.**





SHUNDAY KITOB BOR!

Shayx Fariduddin Attor

XIZRNING DEVONA BILAN SUHBATI

Bor edi devona bir, olyi maqom,
Xizr anga dediki: ey, mardi tamom. *

Istasang, bo'lgil anisu yor menga,
Dedi: bu yorlig' nechun darkor menga?

Necha bor ichding o'shal obi najot,
To qiyomat yerda surgaysen hayot.

Men etarmen jonni jononga fido,
Jon kerakmas menga jonondin judo.

Sen-ku jonning asragaysen har kuni,
Men esam jononga baxsh etgum uni.

Yaxshidir ul, bo'ylikim qush birla dom,
Bir-birovдин ayru tursak, vassalom.

HIKOYAT

Bor edi bechora, bir miskin, xarob,
Qo'shniñining eshagin oldi so'rab.

So'ng tegirmon bordi, unda uxladi,
Eshshagi ketdi yiroqlab, o'tladi.

Bo'ri uchrab, edi eshshakni hamon,
So'rdi eshshak egasi andin tavon.

Tushdi chun savdo ularning boshiga,
Bordilar alqissa qozi qoshiiga.

Bor gapni ro'yrost aytilib ular,
So'rdilar: eshshak tovonin kim to'lar?

Dedi: ulkim gushna aylab bo'rini,
So'ngra qo'yimish dasht-u sahroga uni.

Bas, tovoni ul o'zi qo'ysin to'lab,
Ikkingiz ham aylangiz andin talab.

Bir emas, ming bitta eshshak bo'lsa gar,
Istasa ul, bir yo'la barham topar.

Bo'rini bundoq yaratmishdir o'zi,
Bir yuxovu gushna etmishdir o'zi.

Yo'q bu ishda kimsada aybu gunoh,
Har nekim istar, uni aylar Iloh.


Ne edi misriy ayollar holati,
Chun ularni yoqdi Yusuf tal'ati?

Bormu hayronlik magar devonadin
Etsa holat umga davlatxonadini?

Har ne mushkul etsa, kiprik qoqmagay,
Oldi, ortiga qiyolab boqmagay.

Har nechuk so'z aytsa, so'zlaydir Uni,
Har ne izlar ersa, izlaydir Uni...

* Mardi tamom – ishini tamomlagan er.



ALISHER NAVOIYNING USTOZIGA EHTIROMI

salmoqli, chuqur mazmunli ekanligini his qilmaga ekanman.

Bu kitobni ko'rib chiqqach, kichkina Alisher bolaligidanoq harakatlari chaqqon, axloqi go'zal ekanligini his qildim va daho bobomizni siz aziz kitobsevar bolalarga o'xshatgim keldi. Nega deganda, bilim olish ishtiyogi sizda ham bisyor. Fariduddin Attor sharq mumtoz adapibiyotining yirik namoyondalaridan biri. Uni A.Navoii o'zining birlinchi ustozi deb bilardi. U umr bo'yvi o'zining ustoza hurmatini saqlaydi. Husayn Boyqaro bilan har ikkisining taqdiri davlat boshqaruviga band bo'lsa-da, vaqt soati kelib, A.Navoii amirlirk darajasiga yetadi. Uning Vatan manfaatiga, el-yurt tinchligi, xotirjamli, obodligi borasidagi ishlarni yaxshi bilasiz. Bobomiz o'zi buyuk ustoza darajasiga yetsa hamki, har bir qilgan ishida, erishgan yutuqlarida ulug' ustozi oldidagi qarzini qalbdan his etardi. Bu xislat har kimga ham nasib etavermaydi.

U Fariduddin Attorni deb Nishopurga karvjonatadi. Karvon orqali mablag' va usta me'morlar ham yuboradi. Ana shu mablag' hisobiga, qo'li gul ustalarining istedodlari hisobiga muhtasham maqbara bunyod etiladi. Hozir ham ana shu maqbara yuksalib turganligini mashhur adibamiz Suyuma G'aniyeva tasdiqlaydilar. Sevimli opamiz Suyuma G'aniyeva shu joyni ziyorat qilganlarida nishopurliklarning o'zlarini faxr bilan ziyoratgohni sizlarning bobongiz Alisher Navoiy bunyod etganlar, deb ta'kidlashgan ekan.

Biz hamisha Alisher Navoiyning asarlaridan, g'azallaridan bahramand bo'lamic, uning buyukligiga qoyil qolamiz. Lekin, qoyil qolishning ham hamishi isboti, dalili bo'lsa, bizga ibrat bo'ldi, deb o'layman. Nega daganda, ba'zan siz u bizga kimdir yaxshilikni qilishni o'rgatadi, hunar o'rgatadi, ustozlik qiladi-yu, ammo ishlari yurishib ketgan vaqtida ko'proq «o'zim shunday zo'rman» deydigan insonlar ham oramizda topiladi.

Alisher Navoiy esa o'zi qanchalik buyuklikka erishgan sari ustozi tavob qilishdan, faxlanishdan qolmadidi.

Buni qarang:
Oltmisiga umr qo'yganda qadam,
«Qush tilin» sharh etkali surdim qalam,
– deydi Alisher Navoiy.

Umriming so'ngida esa «Mantiquyt tayr» – «Qush tili» tayr ga payrov o'qilib, ya'ni ergashib, o'zining «Lisonut tayr» asarini yaratadi.

Alisher Navoiyning dunyoga tanitgan mashhur asarlari buyuk bir imorat bo'lsa, ana shu kitob – Shayx Fariduddin Attorning «Mantiquyt tayr» – «Qush tili» asari ana shu imoratning poydevori bo'ldi. Bu kitobni o'qigan o'quvchi uning qanchalik mustahkam ekanligini qiladi.

Malika BARNOYEVA.

ШАЙХ ФАРИДУДДИН АТТОР МАНТИКУТ ТАЙР

КУШ ТИЛИ



Mustaqillik fayzli keldi. Yillar davomida bizning ilm-fanga tashna ota-bobolarimiz, farzandlarimiz O'zbekiston azal-azaldan jahonga mashhur ekanligini, Ibu Sino, Mirzo Ulug'bek, Al-Xorazmiy, Amir Temur, Mirzo Bobur hayoti va ularning betakror asarlar duno miqyosida jahonda tan olganligini hammayam bilavermasdi.

To'g'ri, maktabda o'qib yurgan davrimizda Alisher Navoiy bobomizning hayoti va ijodiy faoliyatni bizga qisman tanish edi. U ziyoililar oilasidan bo'liganligi, Husayn Boyqaro bilan qadrdon do'stligi, har ikkisi ham bolalikdan mushhoira - bahsadan, betakror ustozlar ilmidan bahramand bo'lganligini bilardik. Alisher Navoiyning olti yoshligidanoq haddan tashqari ziyarkligi, zehni o'tkir, hissyotlari kuchli, tillari biyron ekanligini vaqt o'tgan sari yana-da kuchliroq his qillardik. Uning hayotidan o'mak olishni farzandlarimiz, nabiralarimizga endi baralla aytamiz.

Yaqinda men Shayx Fariduddin Attorning «Mantiquyt tayr», ya'ni «Qush tili» kitobini qo'limga oldim. Alisher bobomiz ushbu kitobini olti yoshligidayoq yod olganligini bilardim. Bilardim-u, uning shu darajada

Taniqli bolalar shoiri Raim Farhodiying nomi nafaqat ona yurti O'zbekistonda, balki qator xorijiy mamlakatlar va hamdo'stlik davlatlariha ham keng kitobxonalar ommasiga ma'lum va mashhur. Uning ko'plab asarlari dunyoning turli tillariga tarjima qilingan va nashr etilgan. «SOG'LIK VA BAXT ZINAPOYALARI» deb nomlangan yangi kitob O'zbekiston bolalari, ota-onalar, o'qituvchilar, tibbiyot xodimlariga atalgan ajoyib sovg'a bo'lib, uni BMT Xalqaro Bolalar tashkiloti UNICEFning mamlakatimizdag'i davlat va jamaot tashkilotlari bilan hamkorlikda chop etdi. Sog'lom turmush tarzining o'ziga xos alifbosini yaratgan ajoyib o'zbek shoiri va shifokori Raim Farhodiying uzoq yillik ijodiy mehnati samarasini sifatida dunyoga kelgan kitobni varaqlarkansiz, uni o'quvchilarning o'zlar chizgan suratlari bilan bezatilganidan quvonasiz. Sababi, bolalarga bola tilida so'zlovchi kitob bola nigohi bilan olamni tasavvur qiladi Shuning uchun ham uning samimiyyati o'zi bilan.

Farzandlarimiz va nabiralarimiz sog'lom va baxtiyor bo'lishlar, uchun biz – kattalar, ota-onalar, bobo-buvijonlar Baxtiyo! Bolalikning himoyasi hamda Yer yuzidagiadolatlari munosib hayo. uchun kuchimizni ayamaymiz, deb yozadi, kitob so'zboshisida Sena a'zosi, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rmosas O'zbekiston Kotin-qizlar qo'mitasi raisi Tursunxo'jayeva Svetlana INOMOVA. Shoiri Kavssar Turdiyeva she'rlarni tarjima qilgan. Bi kitobni ham albatta topib o'qing. Quyida kitobdan parcha e'lor qilmoqdamiz.

BOLALAR HUQLARI

Yashash uchun baxtiyor Bolalarda huquq bor.
O'yin, do'stlik, o'qishga,
Sog'lom bo'lib o'sishga.
Kite, otsin qo'llari,
Nurga to'lsin yo'llari.

Ota-onalar har dam,
G'amxo'r, ayamas yordam.
Do'staridek so'zlashar,
Qiyin paytda qo'llashar.

Huquq bor bolalarda
Charchagan pallarda,
Ota-ona-la birga
Bormoq teatr, sirkka,
Kino, basseyin, tog'larga
Istirohat bog'larg'a.

O'ylab ishlatib aql
Fikrlamoq mustaqil.
Huquq ularda bisyor,
Vazifalar ham bor.
Ular bilishi darkor
Ne degani burch va or,

Tug'ilgan kunlari ham
Har yili bo'lsin bayram.
Bola kular betakror
Unda umid, istiqbol,
Zamin kelajagi bor.

XAYRLI TONG!



Misol quyosh nuri
Uyg'otar tongda turib,
Onajonim qo'llari.
Boshimni silab asta
Uyg'otadi birpastda,
Onajonim qo'llari.
Ovgati shirin buncha,
To'qir paypoq va nimcha,
Onajonim qo'llari.
Mehnat qilib tolmaydi,
Sira ham dam olmaydi,
Onajonim qo'llari.
To'polonga bermas yo'l,
Qalbi daryo, mehri mo'l,



Yig'i-sig'i, xarxasha,
So'zlar shunga yarsha.
Hatto choy ham o'tmaydi,
Go'yo tomoq yutmaydi.

Darmonli ovqat yeyish,
Bu aslida qiyinalish.
Sulili qalamchalar,
Sut, choy bilan ichilar.

Mushuk orzusi esa
Qani u baliq yesa.
Bolalar ozuqasi
Foydalidir qisqasi.

Tug'ilgan kun davrada
Barcha shodon pallada.
Hamma o'tirar quvnoq,
Bo'lsa tort va muzqaymoq.


ISSIQ MUZQAYMOQ



Yotibman betob
Og'riydi tomoq.
Doktor buyurdil:
–Yema muzqaymoq!
Mevalisi ham
Mumkinmas mutloq,
Shokolad-yu
Suti muzqaymoq.


Keltirmas oyim:
–Muz-ku, -der, -sovuj,
Tomog'ing qayta
Og'rishi aniq.
Hattoki buvum
Mehrbo'n, quvnoq.
Po'isa qilar:
–Yema muzqaymoq!
Ruxsat yo'q sovuq
Narsa yeishiga,
Majbirman endi
Nafsim tiyishga.
Yig'i, sig'i ham,
Naf bermas biroq,
Yasab beringlar
Issiq muzqaymoq!

TANDIR NON



Ajib taom pishar
Katta qozonda,
Navro'z payti kuylar
Yangrar azondan.
Erta tong shovqinda
Bog'aro ilk bor
Yangrar ovozlar:
«Sumalak taylor!»
Davrqa yig'ilar
Keksa-yu yosholar,
Tongdan ezgu-tilak
Aytilla boshlar.
Piylologa tushar
Bu ajib taom,
O'z yurtida baxtli
Yashasin inson.
Navro'z ranglari
Yashnar kamalak.
Bir yilga kuch berar,
Biszga sumalak.

SUMALAK



Rain FARHODIY

Bobom yaratgan bog'da
Behi, uzum pishmoqda.
Daraxt shoxida qator,
Olxo'ri, olma, anor.
Ulardan shirini yo'q,
Anorlar go'yoki cho'g'.
Biz uchun qilgan mehnat,
Bobom baxtlidir behad:
–Bog' sizga bersin kuchin
Mevalar boling iching!

BOBOMNING BOG'I

Bobom yaratgan bog'da
Behi, uzum pishmoqda.
Daraxt shoxida qator,
Olxo'ri, olma, anor.

Ulardan shirini yo'q,
Anorlar go'yoki cho'g'.
Biz uchun qilgan mehnat,
Bobom baxtlidir behad:
–Bog' sizga bersin kuchin
Mevalar boling iching!

TOZALIKNING O'N QOIDASI

Toza bo'lsin deb badan
Sovun, cho'tka ol har dam.
Dangasady ko'rinnam,
Yuvinishga erinma.

Yozda, qishda, ayozda,
Chiniqib turish so'z-da.
O'zingga foyda bilsang,
Har kun artib tursang chang.

Joying ozoda, shinam,
Va yoqimlidir biram.
Oyoq kiyim va ko'yak,
Toza bo'lmog'i kerak.

Ovqat yeyishdan tortib,
Har ishda bo'lsin tartib.
Ifloslik soladi xavf,
Qo'ygin qo'lingga qarab.

Ovqatgacha qo'ling yuv,
Ana sovun, issiq suv.
Uyqandan biroz burun,
Aylanib kel kechqurun.

Har kech ohib qo'y oynang,
Shamollab tursin xonang.
Sof havo kirsa agar,
Uxlaysan tongga qadar.

Bolajonim, shuni bil,
Uyqu vaqtga riyoja qil.
Sendan yana bir talab:
Vaqtida tur ertalab.

Tishlaringni toza tut,
Ular bo'lsin sog' va but,
Hatto yovvoyi timsho,
Tish pasta bilan inoq.

Isqirt bo'lib ko'rinya,
Tozalashdan erinma.



BIZ TABIAT FARZANDLARIMIZ!

Biz tabiatni dunyoda eng mo'tabar zot bo'lgan onaga tenglashtiramiz. Buning zamirida katta ma'ne bor, albatta. Har birimiz tabiat qo'yinda dam olishni, daraxtlar soyasida o'tirishni, baland tog'larga chiqishni, sharqiroq soy suvida cho'midishni yaxshi ko'ramiz. Shunday ekan, uni avaylab-asrashimiz ham lozim-da. Esimni tanibmanki, onam bizga kichkinligimizdan o'nda uyda, bog'chaga borganimizda tabiatga nisbatan mehrli bo'lishni o'rgatadi. Bahor kelishi bilan hovliga turli gullar, manzarali, mevali daraxtlar ko'chatini o'tkazamiz. Yil - o'n ikki oy uyda ham tuvaklarda gullar o'stiramiz. Gulxonamda gullarning fikus, aloe, sanseverera, erongul, xitoy atirguli, katarinkus, kaktus, oltin mo'ylov, baxmal kabi turlari bor. Ularni parvarish qilish jarayonida qalbimda o'ziga xos zavq, shodlik hissini sezaman. Ayniqsa, ular chirolyi g'unchalar tugib ochilganida men uchun haqiqiy bayram bo'lib ketadi. Mening ko'zimni quvontirayotgan bu go'zallikdan boshqalar ham bahra olishini istayman. Shu sababli ko'pincha tug'ilgan kunlarda, bayramlarda do'starimga, yaqinlarimga tuvakkagi gullarni sovg'a qilaman. Ularga ham gul o'stirishni, ko'paytirishni maslahat beraman, qiziqtirishga harakat qilaman.

Maktabimizda «Yosh gulsevarlar» to'garagi bor, men ushbu to'garak a'zosiman. Menimcha, gullarni sevgan kishilar haqiqiy go'zallik shaydolari bo'lishadi. Va ular hech qachon birov larga yomonlikni ravo ko'rismaydi.

Bahor fasilda atrof o'zgacha chiroj ochadi, turfa gullarga qaragan kishining bahri-dili

ochiladi. Mahallamizda hamma hovliga, darvoza oldiga gullar ekadi. Ammo, ba'zan chirolyi bo'lib ochilib, mahallamizga ko'rk bag'ishlab turgan gullarni so'roqsiz uzib, duch kelgan joyga tashlab ketadigan tengdoshlarimni

ko'rganda, xafa bo'lib ketaman. Nahotki ularning gullarga rahmlari kelmaydi, deb o'yab qolaman. Axir hamma yoq chirolyi bo'lib, gullarning xushbo'y hidlari kelib tursa, yaxshi-ku. Afsuski, bu oddiy haqiqatni hamma ham tushunavermas ekan-da.

Biroq, katta yoshli kishilarning tabiatga hurmat-sizliklari boyagi tengdoshlarimning qilqlaridan ham oshib tushadi. Masalan, shu yili yozda «Bahor» mahallasiga ariqda cho'milgani borgandik. Afsuski, cho'mi lohnay qaytdik. Chunki ariq bo'yida yashovchilarining ko'pchiligi molxona, hojatxonalarining axlatlarini ariqqa oqizisharkan. Ko'rib, niyoyatda ajablandim. Nahotki odamzot shunchalikka borsa-ya?! Suydan badbo'y hid chiqadi, bundan tashqari, har xil rangdagi yelim xaltalar, salqin ichimliklardan bo'shagan idishlar, konserva bankalari tashlangan. Bu yodqa esa bolalar cho'milyapti. Sal nariroqda kimdir kir, yana birov gilam yuvayapti. 50-60 metr narida qo'y, mol boqib yurgan bolakaylor podasini sug'organi kelishgan. Xillas, hamma

o'zehtiyoji uchun o'sha suvdan foydalanyapti, ammo hech kim uning tozaligi haqida qayg'urmayapti. Suvdek musaffo ne'matga nisbatan bu qadar humatsizlikni ko'rib, yig'lab yuboray dedim. Axir qayerlardadir odamlar shu suvgaga ham zor bo'lishi mumkin-ku! Bu yerda esa suvgaga axlat tashlab, uni ifloslashtirishyapti. Axir ota-bobolarimiz suvgaga tuflashni ham og'ir gunoh bilganlar. Bu isrof garchilikning oxiri nima bo'larkin? Suvga nisbatan humatsizlikning davomini ona tabiat bizga qanday qaytararkan? Nahotki kap-katta odamlar shuni o'ylashmasa, qilmishlaridan uyalishmasa? Agar shu ariqdagi suv bo'lmaganida, ular nima qilishardi? Qayerdandir tashib kelganlarida ham suvni shunchalik behurmat qilisharmidi?.. Menimcha, yo'q. U holda suvni juda avaylab, ehtiyyotlab ishlatgan bo'lishardi. Qaysidir gazetada o'qigandim, ichimlik suvi zahirasi bir necha o'n yillikdan so'ng tugashi ehtimoli mavjud ekan. Olimlar ana shu muammoni hal qilish ustida bosh qotirib, masalaga yechim izlashayotgan ekan. Axir suvsiz qanday yashash mumkin? Ko'pincha, ko'cha-ko'yda ochiq turgan suv jo'maraklariga, yorilgan, teshilgan, suv otilayotgan quvrularga ko'zimiz tushadi. Ammo bu manzarani ko'rib, kattayu kichik beparvo o'tib ketaoveradi. Oyoq bosishga, o'tishga joy topsa bo'ldi, hech kim qimmatli, muqaddas ne'mat bekorga isrof bo'layotgani haqida qayg'urmaydi. Axir kattalar bizga tabiatga nisbatan mehrli bo'lishda ham o'mak bo'lishlari kerak emasmi?! Ba'zida shahar markazida yo'l bo'yiga ekilgan, biroq suvsizlikdan qovjirab yotgan gullarni ko'rganimda, ularga juda achinaman. Tayba, qiziq-dal! Qayerdadir gullar suvga zor, qayerdadir suv bekorga oqib yotibdi. Qani endi qo'limdan kelsa-yu, shu isrof bo'layotgan suvni so'lib borayotgan gullarning jo'yagiga burib qo'ya olsam... O'yab ko'rsam, men gullarni, zilol suvni, musaffo havomi, qo'ying-chi, ona tabiatni borligicha sevar ekanman. Ammo istardimki, tabiatni hamma odamlar mendek sevsalar. Nafaqat sevsalar, uni asrab-avaylash uchun qayg'ursalar, qadriga yetsalar. Axir biz ona tabiat farzandlarimiz-ku.

Zarina MINIYAROVA,

Sirdaryo viloyati, Guliston shahri,
5-o'rta maktabning 9-sinf o'quvchisi.

Maktab yangiliklari

ENG QULAYI - «KLASTER» XONALARI

Poytaxtimizning Hamza tumanida joylashgan 69-maktabda ta'lim o'zbek va rus tillarida olib boriladi. Ushbu ilm maskanida 945 nafar o'quvchi tahsil oladi. Ularga «Xalq ta'limi a'lochisi» unvonni nishondorlari Mamlakat Yo'idosheva, Yelena Sokolovskaya, «Shuhrat» medali sohibalari Ibodat Musayeva, Inobat Tursunova singari 56 nafar malakali o'qituvchilar fan sirlarini qunt bilan o'rgatishmoqda. Kelgusi o'quv yilida maktabda daylat tomonidan 2ta «klaster», ya'ni axborot resurs tizimini amalga oshiruvchi kompyuter xonalari tashkil etish rejalashtirilgan.

AWAL SHAROIT...

-Buning uchun hozirdanoq tayyorgarlik ishlari boshlab yuborganmiz, - deydi maktab direktori Rahima Bobojonova.

O'tgan o'quv yillari mobaynida bilim saviyasi bo'yicha tumandagi 30 ta ta'lim maskanlari orasida 18-o'rinda bo'lgan bilim maskanimiz joriy o'quv yilida 7-o'ringa ko'tarildi.

Kelajakda yana ham yuqori natijalarga erishish uchun intilayapmiz. Ta'lim maskanimizda bolajonlarimizning puxta bilim olishlari uchun yetarlicha sharoitlar yaratilgan. Ta'lim jarayonining xilma-xilligi, yangi pedagogik texnologiyalar asosida ish olib borishimiz, mavjud fan hamda kasbga yo'naltirilgan to'garaklarimizning o'quvchilarimiz ixtiyoridaligi bois ibratli natijalarga erishayapmiz. O'quvchilarimizdan Abror Mavlyanov, Tanya Busigina, Rustam Kattabekov, Nulufar Bozorova, Aygul Sagdatulina, Barno Xolmurodova, Iroda Soibova kabilar fan olimpiadalarining tuman, shahar hamda respublika bosqichlarida faxrli o'rnlarni egallashdi.



«Yilning eng yaxshi o'qituvchisi» ko'rik-tanlovida ishtirok etgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi Mamlakat Yo'idosheva respublika bosqichida I o'rinni qo'lga kiritdi.

Sportsevar o'quvchilarimizdan Andrey Reznichenko, Muxtor Kulatovlar yengil atletika bo'yicha shahar musobaqasida I o'rinni egallashdi.

Maktabimizda boshlang'ich sinf o'quvchilar qo'shimcha ravishda matematika va ingliz tilidan, 5-sinflarimizda esa iqtidorli o'quvchilar sinfi tashkil etilib, ularga matematika fanidan chuqurlashtirilgan saboqlar o'tilishi barobarida yuqori sinflar uchun oliy ta'limga tayyorlovchi kurslar tashkil qilingan.

Maqsadimiz, kelajakda ta'lim maskanimizda «kasb-hunar majmuasi» tashkil qilishdir. Bo'lg'usi tokar, elektropayvandlovchi, hamshiralik kabi mutaxassisliklarga ega bo'lgan o'g'il-qizlarga diplomlar beriladi.

-Zardo'zlik, mohir qo'llar, bichish-tikish kabi to'garaklarimizda esa bolajonlarimiz milliy hunarmandchiligidan sirlarini



o'rganishmoqda, deya suhbatimizga qo'shildi ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinosari Zulfiya YUNUSOVA. - «Konstitutsiya olamiga sayohat», «O'zbekiston - mening Vatanim», «Mahallamiz bolalari» kabi tanlovlarning muntazam ravishda o'tkazilayotgani o'quvchilarimizning bilimlarini har tomonlama mustahkammoqda.

«ZULFIYAXONIM QIZLARI»

Zumrad Ahmedova qator yillardan buyon o'quvchilarga ona tili va adabiyot fanidan saboq berib kelmoqda. Izlanuvchan, intiluvchan muallimaning bugungi kunda izdoshlari, yuzlab shogirdlari bor. Har yili bo'lib o'tadigan «Zulfiyaxonim qizlari» tanlovida ishtirok etayotgan maktab o'quvchilarini albatta ular tayyorlaydilar. Rayhon Tuliyeva, Malika Ashirova singari zukko qizlar ustozlari yordamida puxta tayyorgarlik ko'rganliklari bois tumanda III va I o'rnlarni qo'lga kiritishdi. Malika ismli qiz «Madaniyat yo'naliishi» bo'yicha shahar tanlovida qatnashish huquqiga ega bo'ldi. Uning muvaffaqiyatidan Zumrad opaning qalbi quvonchga to'ldi. Chunki opa uchun o'quvchilar ham farzandiday aziz sanaladi.

Maktab kutubxonasidagi mayjud 10 mingdan ziyod badiiy kitoblar orasidan o'quvchilariga mutolaa uchun tanlab berayotgan Zumrad opa kitobning nutqini rivojlantirib, fikrlash qobiliyatini oshirishini bot-bot takrorlaydi.

Har qanday ishning natijasi ijobji bo'lgani yaxshi. Olim ham, professor-u shifokor ham, uchuvchi-yu san'atkor ham kim bo'lishidan qat'iy nazar, avvalo maktabda tahsil oladi. Har bir o'quvchiga kelajakda nurli yo'lni ko'rsatuvchi shubhasiz ustozlardir. Bas, shunday ekan, har lahma g'animat. Ushbu otinga teng lahzalarining albatta qadriga yeting, aziz bolajonlar!

Jamila HAYDAROVA.

Ustoz fikri

HAR SINFGA IKKITADAN...

Insonlarning ma'nnaviyati qay darajada ekanligini ular bilan ikki suhbat davomida bilib olsa bo'ladi. Jizzaxlik Abdulla aka Saidov bilan tanishganimizda ularni o'qituvchi bo'lsalar kerak, deya taxmin qilgandik. Yanglishmagan ekanmiz, mana 40 yildirki, G'allaorol tumanidagi 78-maktab o'quvchilariga nemis tili fanidan saboq berib kelayotgan ijodkor ustozlardan ekanlar. Hikoyalari respublika nashrlarida tez-tez chop etilib turarkan. Bizning tahririyatimizga ham bir nechta bolalarbop hikoyalardan olib kelgan keksa muallim bilan qurgan suhbatimiz o'z-o'zidan obuna mavzusiga ulanib ketdi.

-1966-77-yillar davomida gazetangizning eng faol muxbirlaridan edim,-deya xotirladilar Abdulla aka.-Talaygina hikoyalaram shu gazeta orqali millionlab o'quvchilar hukmiga havola qilingandi.

Yodimda bor, o'sha kezlar bolalar nashrlariga obuna jarayoni qizg'in kechardi. Maktab yetakchisidan tortib, uning rahbarigacha bu ishga jiddiy yondoshishardi. Gazetaning har sonini bitta partaga ikki donadan tarqatib chiqqanlarim hamon esimda. Bolalar ham uni zo'r qiziqish bilan o'qib chiqib, qizg'in babs va munozaraga kirishib ketishardi. Obunani yaxshi tashkillashtirib, maktabimizdagi 300 nafar o'quvchining barini shu gazetaga, avvalgi «Lenin uchquni»ga obuna qildiranim uchun hatto «Faxriy yorliq» ham olganman. Uni esdalik uchun saqlab qo'yganman.

Hozir esa maktablarda bu jarayonga yuzaki yondoshilyapti, nazarimda. Ayrim ustozlar bir sinfa 20 nafar o'quvchi o'qiydimi, 40 nafarmi, farqi yo'q, bir donagina «Tong yulduzi»ga obuna qildirib qo'yishadi-da, ko'krak kerib yuraverishadi. Gazetadagi maqlolarni sinfdan tashqari soatlarda o'qitib muhokama qildirish, she'rlarini yod oldirish orqali o'quvchilarida gazetxonlik, kitobxonlikka havas uyg'otish u yodqa tursin, uning o'quvchilar qo'liga yetib kelayotgani bilan ham qiziqishmaydi. Ba'zi maktablarning hatto kutubxonalaridan ham bu gazetani topolmaysiz. Bu juda achinarli holdir. Zero, farzandlarimiz ma'nnaviyati haqida biz ustozlar qayg'urmasak, kim qayg'uradi?

Men keksa bir muallim sifatida kuch-quvvatim boricha obunadek xayrli ishga o'z hissanni qo'shaman. 502 nafar o'g'il-qiz tahlil olayotgan maktabimizda har bir sinfni bir emas, ikki donadan «Tong yulduzi»ga obuna qildiraman...

Shoyad, yosh ustoz va murabbiylar, fidoyi yetakchilar ham ibrat olishsa, degan niyatda keksa muallimning kuyunchaklik bilan aytgan fikrlarini to'laligicha chop etishga ahd qildik. Gazetamizning keyingi sonlarida ularning ijodlaridan namunalar e'lon qilamiz.

Sog'liging - boyliging

AVVAL TAOM...

Kech yotgan Diyorbekni onasi arang o'midan turg'azdi.

-Uyg'onaqol o'g'lim, soat ham sakkiz bo'lib qoldi. Mana bu pulni ham ol, ovqatlanasan, -deya stol ustga ikkita ikki yuz so'mlik qo'ydi.

Aksariyat bolalar erta tongdan o'rnilaridan turib nonushta qilishga erinadilar. Natijada dars davomida holsiz, lanj yuradilar. Darsni qabul qilish qobiliyati ham pasayadi.

Maktabda ovqatlanarman, deya ketaveradilar. Maktab oshxonalaridagi ahvol esa turlicha. Bir stakan shirin choyning bahosi 100 so'mdan 500 so'mgacha. Ayrim o'quvchilar oshxonaga to'g'ri kirib, qo'llarini ham yuvmasdan xarid qilgan narsalarni yeyavreshadi. Kulcha va somsalar quruq taom hisoblanadi. Ular issiq ovqat o'mini bosolmaydilar. Shuningdek, oshqozonga botishi natijasida turli xastaliklar kelib chiqishi mumkin.

Shuning uchun aziz o'quvchilar, biroz erta turishga odatlaning. To'g'ri ovqatlanish - puxta bilim olish garovidir. Zero, bobolarimiz «Avval taom, badast kalom», deb bejizga aytishmagan.

Dilfuza XOLMATOVA,
O'zMU, jurnalistika fakulteti talabasi.




«Salomatlik garovi» tanloviga

MEN DANGASA EMASMAN

Barvaqt turay deyman-u,
Ocholmayman ko'zimni.
Dars ham quloqqa kirmas,
Lanj sezaman o'zimni.
Biror yumush bajarsam,
Zumda charchab qolaman.
Yayov yursam yuz bord,
To'xtab damim olaman.
Shularni aysam, akam,
Mazax qiladi doim.
Aslida dangasasan,-
Deydilar kulib oyim.
Tunov kuni maktabga,
Shifokorlar kelishdi.
Sog'ligimiz tekshirib,
Xo'p yugurib-yelishdi.
Men, Nodira, Zilola,
Tohir, Jasur va Yulduz.
Kamqon bo'lib qolibmiz,
Yana talay o'g'il-qiz.
Shunda do'kon oralab,

Boyitilgan un topdik.
Va undan shu kuniyoq,
Bo'rsildoq nonlar yopdik.
Oradan hafta, o'n kun,
O'tar-o'tmas chamasi.
Iziga tushib ketdi,
Ishlarimning hammasi.



Opamdan barvaqt turib,
Yig'ishtirdim joyimni.
Nonushta ham hozirlab,
Lol qoldirdim oyimni.
O'zimni kuchli, tetik,
Sog'gom his qilayapman.
Darslarimni bir zumda,
Quloqqa ilayapman.
Endi bildim TEMIRga,
Boyitilgan UN noni-
Darmondorilar hamda
Sog'liqning ekan koni.

Feruza JALIOVA.

Bugunning bolasi

FERUZANING LIBOSLARI



Tahririyatimizga tortinibgina kirib kelgan qizaloqdan shunday aqlli fikrlar eshitaman deb hecham Toshkent shahridagi 241-maktabning Rahmonqulova, deya tanishtirgan budi deguncha, xayolan turli liboslar malarini chizaverarkan. Hozirsoni yuztadan ham oshib ketibdi.
«Men kelgusida liboslar man!» Bu - Feruzaning orzusi.
-Men chizayotgan libosmatoingiz o'ta qimmataho -deydi 14 yoshli qizaloq mulohaza yuritib.- Aksincha, oddiy, havo ko'zga yaqqol tashlanmaydigan rangdagi bo'lsa, kifoya. Masalan, paxta yoki zig'ir tayyorlangan matolar sog'lik uchun foydali. tananing bir maromda «nafaq olishi»ga beradi. Atlasdan tikilgan kiyimlar esa baribir

Feruza maktabda ham a'lochi o'quvchilardan sanaladi. Barcha fanlarga, ayniqsa, algeqiziqishining boisi, hamma «matematika donishmandi» Rustamovning o'quvchilarni o'z fanlariga qiziqtira

qizlar har narsaga qiziquvchan bo'lishadi. Feruza ham salatlar tayyorlash jon-u dili. Nonushtaga piyozli qatlama, grechka bo'tqasi kabilarni duosini oladi. Hozirdanoq biror hunarning boshini gan qizaloq maktabdagi to'qish to'garagiga qatnaydi, taqinchoqlar yasaydi, kashtalar to'qiydi, uyidagi mato ratgan chizmalar asosida mitti kiyimchalar tikib «Ko'p kitob o'qigan bola bilimli, dunyoqarashi gaplarini qulog'iga ilib olgan. Antuan Ekzyuzoda»sin yaqinda o'qib tugatdi. Dugonalari Adolat, Hayotxon, Sayyoralarning biridagi tirishqoqlik, yana boshqasidagi mehribonlik kabi fazilatlarni juda jonivorlarni juda yaxshi ko'radi. Ko'pchilik qora tirmaydi. U esa oltita qora mushukni mehr bilan


o'qishga, izlanishga sarflaydi. Chet ellarda tomoshalari, konsertlar, jamoat joylarida ko'p kiyinshularini sinchiklab o'rganisharkan. Ulardan umumlashtirib, o'z liboslarini yaratisharkan. Feruza ham ko'proq odamlar gavjum qaysi yoshdag'i insonlarga qanday liboslar ganishga intilarkan.

Orzulari yo'lida timay izlanayotgan Feruza tengdoshlarining ham maqsad sari intilib yashashlarini istaydi.

Aziza suhbatlashdi.

Faxr

O'ZIMIZNING SO'G'DIYONA



Aziz bolajonlar! «Xo'ja Nasriddin yoki o'yin boshlandi», «So'g'diyona» filmlarida bosh qahramon rolini ijro etgan estradamizning yorqin yulduzlaridan biri So'g'dyonani barchangiz tanisangiz kerak? O'zining shirali ovozi, diltortar qo'shiqlari bilan muxlislari ko'ngilga yo'l topayotgan So'g'diyona yaqinda tahririyatimiz mehmoni bo'ldi. Belorussiya safarida bo'lqanimizda u yerdagi yoshlari ham Rossiya telekanali orqali namoyish etilayotgan «Yulduzlar fabrikasi» ko'rsatuvida So'g'dyonanining chiqishini sabrsizlik bilan kutishayotganini aytishdi. Bundan ko'rinish turibdiki, So'g'dyonanining nafaqat O'zbekistonda, balki boshqa davlatlarda ham muxlislari talaygina ekan. O'zining sharqona tarbiyasi, kamtarligi bilan barchamizni lol qoldirgan san'atkori bilan suhbatlashganimizda, quyidagilarni bilib oldik.

So'g'diyona (asli ismi Oksana Nechitaylo) 1984-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Dastlab V.Uspenskiy nomli maxsus musiqa maktabida fortepyano sinfida tahsil olgan. O'qishi mobaynida viloyat, respublika miqyosida o'tkazilgan yosh pianinochilar ko'rik-tanlovida qatnashib, laureat bo'lgan. 1998-yilda qo'shiqchilik sohasida o'zini

sinab ko'rgan. 1999-yilda «Sado-99», 2002-yilda «Yurtim sadolari» singari respublika ko'rik-tanlovlarida qatnashib, faxrli o'rnlarni egallagan. Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan «Yulduzlar sari yo'l» festivalida laureat bo'lgan. Uning «Mening qalbim», «Yurak magnit» singari musiqliy albomlari nafaqat yurtimizda, balki chet ellarda ham muxlislari topgan. So'g'diyona rus, ingлиз, fransuz, fors tillarida ko'plab qo'shiqlar yaratgan. U o'z ustida timmay ishlaydi. Yaqinda Rossianing Moskva shahrida bo'lib o'tgan «Oltin grammofon» tanlovi sohibi bo'ldi. Biz undan, bunday yutuqlarga qanday erishdingiz, deb so'raganimizda, shunday javob berdi:

—Avvalo menda yurtimga bo'lgan muhabbat kuchli. Agar odam o'z yurtini sevmasa, bunday yutuqlarga erisha olmaydi. Qolaversa, oilam, ustozlarimning menga nisbatan talabchanliklari tufayli, deb o'ylayman. Yana inson doimo kamtar bo'lishi lozim. Shundagina u ko'zlagan maqsadiga yeta oladi. Men yoshligimda «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lgandim va uni sevib mutolaa qilgandim. Oradan shuncha vaqt o'tib, uning aziz mehmoni sifatida tahririyat xodimlari bilan yuzma-yuz bo'lib turibman. Bu men uchun katta baxt. Mening istagim, har bir o'g'il-qiz qay bir sohada bo'lmash, O'zbekiston sharafini butun olamga yoysinlar...

Yaqinda Moskva chahrida bo'lib qaytgan bir xamkasbimizning aytishicha, So'g'dyonanining qo'shiqlarini u yerda ham sevib tinglasharkan. «O'zimizning So'g'diyona-da!», deb qo'yidik faxr bilan.

Nodira MIRZAYEVA.

TABRIKLAYMIZ!

Ertaga men uchun aziz va suyukli bo'lgan buvijonimning tug'ilgan kunlari. Ushbu she'rimni sovg'a sifatida qabil qilishlarini istardim.

BUVIJONIMGA

*Qaniydi, hamma ham sizdayin bo'lsa,
Har bir inson qalbi mehrga to'lsa.
Dunyoda bo'lardi faqat ezgulik,
O'zi pok, so'zi pok, aziz buvijon.*

*Insonlar elim deb kuyib yashasa,
Farzand nabirasin suyub yashasa.
Bu ko'hna zaminda bo'lmashdi armon,
Dili pok, tili pok, jonim buvijon.*

*Ehtimol, sizdayin insonlar ko'pdir,
Mehri quyosh yanglig' qaynoq, serjilo.
Biroq, mening uchun hammadan a'lo –
Buvijon, o'zingiz yagona, tanho!*

Rushana SHUKUROVA,
9-sinf o'quvchisi.



O'ZBEKISTON!

*G'urur va jur'at bilan,
Dunyoga solding hayrat.
Go'yo ko'kda bir yulduz,
Porlagaysan to abad.*

ONAM

*Tepamda porlagan quyoshim onam,
Dardlarim tinglovchi sirdoshim onam.
Yo'llarimdan adashib qolgan chog'imda,
To'g'ri yo'l ko'rsatuvchi yo'ldoshim onam.*

*Ko'zlarining hech qachon yoshga to'lmash,
Orzularining mudom armon bo'lmash.
Meni doim qo'llab duolar qiling,
O'zingiz ham hamisha yonimda bo'ling.*

*Sochingizga oqlar oralasa ham,
Yashang onajonim dunyo turguncha.
Qaddim dol-u, ko'zim nurdan qolsa ham,
Sizga she'rlari bitay qurbim yetgunicha.*

Dovrug'ingdan faxr qilib,
Oyga uchgim keladi.

Keng fazodan husningga,

To'yib boqqim keladi.



Ruxsora NE'MATULLAYEVA,

Qashqadaryo viloyati, Mirishkor tumanidagi Oybek nomli
11-mumiy o'rta ta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi.

Rajabboy RAUPOV,
yozuvchi.

TONG yulduzi
Ota yurimga o'rinni boshqar

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV

(O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri),

Dilbar ALIMJONOVA

(«Sog'lom avlod uchun»

hukumatga qarashli bo'limgan

xalqaro xayriya jamg'armasi

ijrochi direktori),

Qahramon QURANBOYEV

(«Kamolot» YOIH markaziy

kengashi raisi o'rinnbosari),

Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMU bosh muharrir o'rinnbosari),

Dilmurod RAHMATILLAYEV

(Andijon viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Dilshoda DADAJONOVA

(Namangan viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinnbosari),

Sobirjon SHARIPOV

(Xorazm viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Nurxon NAFASOV

(O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustasi),

Ergashvoy SARIQOV

(Iqtisod fanlari doktori).

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida

022-raqam bilan 2003-

yil 11-dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»

nashriyot-matbaa ijodiy uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 16864

Buyurtma N:J-3124

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin SHOYODGOROV

Navbatchi:

Muharrama PIRMATOVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong1924@mail.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel./faks:

(99871) 144-38-10